

Topshiriq ijrosi yuzasidan Qurilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda vazirlik hamda idoralar bilan kelishildi (ID-28246 (V-I)). Loyihaga hududiy qurilish bosh boshqarmalari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, buning uchun ularning tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish, shuningdek moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish nazarda tutadigan takliflar kiritilgan. Hozirgi kunda Ushbu topshiriq ijrosi yuzasidan Qurilish vazirligining 01.06.2022 yildagi 13-06/6300-sonli xati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida"gi qarori loyihasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilgan.

2.2.-band bo'yicha.

01.06.2022-yilgi 13-06/6300 sonli xat orqali Vazirlar Mahkamasiga, yagona elektron (project.gov.uz) tizimi orqali vazirlik va idoralar bilan kelishilgan (ID-28246 (V-1))-son "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida"gi qarori loyihasi kiritildi.

3.2.-bandi.

yo'l xaritasining 3.2 bandiga muvofiq, Loyiha qidiruv tashkilotlarining elektron reytingi ishlab chiqish vazfiasi bo'yicha VM-46 son qaroriga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish bo'yicha (2 ilova 1 band) qaror loyihasiga tegishli bandlar kiritildi. Unga ko'ra "Reytingning asosiy yo'nalishlari, mezonlari va har bir mezon bo'yicha belgilanadigan ballar hamda baholash metodikalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar Qurilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrdagi PQ-43-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturlari ijo etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi bilan kelishgan holda kiritilishi belgilandi. Hozirda mazkur qaror loyihasi reglament talablariga muvofiq Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. (xat raqami. 14-06/6446 03.06.2022-yil)

Korrupsiya xavflariga eng ko'p duchor bo'ladijan yo'nalishlar va lavozimlar reestrini ishlab chiqildi. Vazirlikning 10.08.2022-y. Kungi 01/6-05/9141-sonli xati orqali reestr jadval ko'rinishida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga kiritildi.

6.1.-band.Mazkur topshirqlarning ijrosini nazarda tutadigan normalar Qurilish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining "Aholi punktlarini bosh rejalarini tasdiqlashda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi hamda "Mahalliy ijo hokimiyati organlari va davlat organlarining hududiy bo'linmalari tomonidan aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari loyihalari ishlab chiqilib, ularni o'rnatilgan tartibda vazirlik hamda idoralar bilan kelishish ishlari olib borilmoqda. Ushbu topshiriq ijrosi yuzasidan Qurilish vazirligining 20.09.2022 yildagi 13-06/10766-sonli xati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahalliy ijo hokimiyati organlari va davlat organlarining hududiy bo'linmalari tomonidan aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirish tartibi xaqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi Vazirlira Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilgan.

6.2.-band. Bosh reja loyihlarni aholi o'rtasida muhokama qilish tartibi Qurilish vazirligi tomonidan 2021 yil 22 fevralda tasdiqlangan Shaharsozlik kodeksining 35-43-moddalariga kiritilgan. Kodeks 2021 yil may oyida kuchga kirgan.

Bosh rejalarini amalga oshirish bo'yicha davlat hokimiyati organlariga va aholiga axborot berish tartibini joriy qilish hamda davlat hokimiyati organlari tomonidan shahar va shahar posyolkalarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirish tartibi masalasida boshqarma tomonidan Vazirlar Mahkamasining "Mahalliy ijro hokimiyati organlari va davlat organlarining hududiy bo'linmalari tomonidan aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2022-yil 20-sentyabr kuni №13-06/10766-sonli xat orqali (ID-26247) ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan.

Qurilish vazirligi tomonidan 2022 yil 6 iyul kuni 18-06/7857-son xat bilan Moliya vazirligiga manzilli ro'yxatni shakllantirishning aniq tartibi va muddati hamda hujjatlarni elektron tarzda almashinuvni bo'yicha o'z takliflarini yuborgan.

10.1.-bandi bo'yicha.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-73-son qarorining 10-ILOVAsi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 302-son qarori bekor qilingan.

Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-73-sonli «O'zbekiston Respublikasining «2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

10.2.-band bo'yicha

Bugungi kunda, Qurilish vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 46-son qaroriga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, mazkur topshiriq ijrisining bajarilishi bo'yicha mazkur 46-son qaroriga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlarda, qurilishi tugallanmagan obektlar yakuniga yetkazilmasdan, bosh pudratchi o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajara olmagan taqdirda obektni boshqa pudratchiga o'tkazish va qurilishni davom ettirishga ruxsat berish tartibi inobatga olinayotganligini ma'lum qilinadi.

10.3.-band bo'yicha

topshiriqda qaror loyihani 2023 yil 2 kvartalda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi ko'rsatilganligi sababli ushbu qaror loyihasi 2023 yilda kiritiladi

Bugungi kunda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 46-son qaroriga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror loyihasi ishlab chiqilayotgan bo'lib, yuqorida qayd etilgan topshiriqlar ushbu qaror loyihasida belgilangan.

Ob'ektlarning qurilish-ta'mirlash ishlari uchun bosh pudrat tashkilotlarini aniqlash bo'yicha tender savdolarida oferentlarni baholash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 yanvardagi 46-sonli «Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, inson omilisiz elektron platforma tomonidan mustaqil tarzda, sohaviy reyting asosida tegishli vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazasi bilan integrasiya qilingan holda amalga oshirilgan.

Unga ko'ra, tender savdolari «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimining platformasida on-layn ko'rinishda elektron ko'rinishda va inson omilisiz amalga oshirilib kelinmoqda.

Nizomining 40-bandida elektron tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugagan sanadan boshlab 2 ish kuni ichida platforma tomonidan tender g'olibani aniqlanadi va ushbu 2 ish kuni yakunlangan kundan so'ng g'olib tashkilotga aksept yuboriladi.

Aksept g'olib tashkilot tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab tender tugallangan deb hisoblanadi.

Agar aksept yuborilgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida g'olib tashkilot tomonidan tasdiqlanmasa, ushbu g'olib tashkilot pudrat shartnomasini imzolashdan bosh tortgan hisoblanadi va aksept zaxiradagi g'olibga yuboriladi deb ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan nizom ilovasiga muvofiq tender savdolari g'olib sifati buyurtmachi bilan shartnoma tuzishdan bosh tortilganligi sababli elektron platforma tomonida ikki yilga tender savdolarida ishtirok etishdan chetlashtirish tartibi belgilangan.

Qaror bilan surunkali ravishda qoidabuzarlikka yo'l qo'yan, shartnoma shartlarini o'z vaqtida bajarmagan nomaqbul pudrat tashkilotlarini tender savdolari ishtiroki cheklangan

Davlat xaridlari sohasida mas'uliyatni oshirish va korrupsiyani bartaraf etish maqsadida mazkur sohadagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni oshirish bo'yicha Vazirlikning 2021-yil 25-oktyabridagi 194-sonli buyrug'iga asosan "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasi" tasdiqlangan. Unga ko'ra kontragentlarni qanday tekshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Bugungi kunda qurilish sohasida davlat xaridlari tashkil etish va o'tkazish elektron tarzda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 yanvardagi 46-son qarori talablari asosida amalga oshirilmoxda.

Ushbu qarorda buyurtmachi tashkilotchi, pudrat tashkiloti va elektron platforma operatorining funksiya va vazifalari belgilab berilgan.

Davlat buyurtmachilar uchun qurilish sohasidagi davlat xaridi amalga oshirishda namunaviy tender hujjatlari talab etilmaydi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 noyabrdagi "Qurilish sohasidagi davlat xaridlari tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 665-son qarori tasdiqlangan.

Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi "Loyiha-qidiruv va qurilish pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 699-sodan qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 46-sodan qarorida asosida (tender.mc.uz) elektron platforma orqali amalga oshirilmoqda. Elektron platformada tender savdolariga e'londarni jarayondagi, amalga oshgan va amalga oshmagan toifalari, e'longa berilayotgan obektlar hududlari, bayonlar nomerlari muddatlari bo'yicha alohida sahifalarga tizimlashtirilgan. (10.06.2022-y.kungi 15-06/6680-sodan xat bilan Moliya vazirligiga xat yuborilgan)

"Yagona yetkazib beruvchi tomonidan ishlab chiqariladigan va yetkazib beradigan tovarlarni maxsus raqam (tovar kodi) bilan biriktirgan holda sotib oluvchi tomonidan yagona yetkazib beruvchidan faqat aynan shu raqamdagagi mahsulot (ish yoki xizmatni) sotib olish imkonini beruvchi cheklowni kiritish tizimini joriy qilish" belgilab qo'yilgan. Shaffof qurilish platformasida har bir lot alohida raqamlar (kodlar) bilan ko'rsatilishi belgilandi. Moliya vazirligiga vazirlikning 15.07.2022y. 18-07/8169-sodli xati yuborilgan.

Ob'ektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari uchun bosh pudrat tashkilotlarini aniqlash bo'yicha tender savdolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 yanvardagi 46-sodli «Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, inson omilisiz elektron platforma tomonidan mustaqil tarzda, sohaviy reyting asosida tegishli vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazasi bilan integrasiya qilingan holda amalga oshirilib kelinmoqda.

Unga ko'ra, tender savdolari «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimining platformasida onlayn ko'rinishda elektron ko'rinishda va inson omilisiz amalga oshirilib kelinmoqda.

Davlat xaridlari maxsus axborot portalida ma'lumotlarni qidirish va tizimlashtirish imkoniyatlari tender.mc.uz platformasida yaratilgan.

Davlat nazoratini amalga oshirvchi organlarga tizim operatori (Shaffof qurilish) tomonidan platformada o'tkazilgan tender savdolarini davlat xaridlari sohasida qonunchilik talablariga rioya etilayotganlini masofaviy o'rganish maqsadida nazorat qiluvchi organ xodimlariga shaxsan (pasport ma'lumotlariga asosan) biriktirilgan login, parollar taqdim etilgan.

Elektron platformaga nazorat qiluvchi organ xodimi kirganda o'tkazilgan tender savdosi bo'yicha ishtirokchilarning reyting ballari, umumiyl tender savdosida olgan ballarini, reyting shakllanishidagi mezonlar bo'yicha berilgan ballarini ko'rish imkoniyati yaratilgan.

2021 yilning aprel oyida O'zekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan Bosh prokuratura Akademiyasi tomonidan komplaens-nazorat xodimlari uchun tashkil etilgan o'quv kursida vazirlik komplaens-nazorat mutaxassislari malaka oshirdilar.